

NAMANGAN TEATR SAN'ATI JAMIYAT HAYOTIDAGI OLDINGI, XOZIRGI MAVQEYI VA MAYDON TOMOSHALARIDAGI TUTGAN O'RNI.

**Oxundedayev Xojiakbar Mamaxamadali og'li
doktaranti (PhD)**

**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7094886>**

Annotatsiya

XX asr boshlarida o'zbek professional teatr ham milliy kinematograf ham ommaviy auditoriyaga murojat qilib, tomosha san'atlari saxnada - ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarga chiqdi. Natijada keng tomoshabinlar omasi bilan badiiy kommunikatsiya yuzaga keldi.

Kalit so'zlar: Teatr, film, kino, drama, komediya, milliy, maydon tomoshalari va zamonaviy, tomoshabin.

Teatr tomoshalari va filmlar namoishi o'z tomoshabinlarida muayan ijtimoiy-madaniy, axloqiy, siyosiy-mafkuraviy tuyg'ularni va fikrlarni aktualashtirishga xizmat qila boshladi. Hususan, o'zbek profiseonal teatr taraqqiyotining daslalabki bosqichlarida xayotiy voqealikni saxnada aynan ko'rsatish uslubini ko'plab, asarlarning janriga qarab romantik va xajviy bo'yoqlarini kirita boshladi. Ilk spektakil va ovozsiz filmlardan didaktika, shiorlik yaqqol aks etkan bo'lsa, biroz tajriba ortirilgach, asar konfliktidan kelib chiqqan xolda, ziddiyatliq ikki tomoni qiyosan tasvirlash tamoyili kuzatila boshladi,

O'zbekiston xududida teatr san'at qadimdan paydo bo'la boshlagan, qadimgi Movaraunaxir Temuriylar davridayoq xar xil ko'rinishda bo'lgan masqaraboz, dorvoz, raqqos qo'g'irchoq ko'rinishda bolgan. Keyinchalik 19 asirda Qoqon xonligida Zokir Eshon boshliq 30 ga yaqin askiyachilarchilar todasi, Buxoroda Tula masxara boshliq 20 ga yaqin masxarabozlar todasi shuxrat qozongan.

Shu tariqa O'zbekistonda yangi davr, teatr yaratish xarakati yuzaga keldi, jumladan 1971 yil 15- yanvarda Samarqand va 27-fevralda Toshkentda „ Padarkush „ dramasini saxnalashtirish bilan o'zbek teatr illk qadamini tashladi.

Keyinchalik boshqa xududlardaxam teatrlar ochila boshladi O'zbekistonda madaniyat san'at va milliy xunarmanchilik turlari rivojlanmoqda shu boyis axolini madaniy etikasini rivojlanirish asos bolib qolmoqda.

Namanganda Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqaliy drama va komediya teatri 1931 yil 15- iyunda A.Sultonovning „Intilish,, spektakli bilan ochildi. Ilk spektakilning nomidayoq yangilika intiluvchi ,yangilik izlanish yolida

jipislangan kishilarning jasorati, qati'yatini aks ettiruvchi, xayotiy barqarorlik mujassamlashgan edi.

Mazkur spektakil bilan O'zbekiston yilnomasida yorqin saxifalaridan biriga aylangan edi. Shu tariqa Namangan teatrida ko'plab asarlar yaratildi.

Fikrimiz dalili sifatida F.Zafariyning "Xalima", U.Ismoilovning "Rustam", F.Shillerning "Makr va muhabbat", A. Bobojonovning "Aziz va Sanam", A. Solovyovning "Nasriddin afandi", Uzbek sahnasida ilk bor namoyish etilgan M.Lermontovning "Ispanlar", V. Shekspirning "Qirol Lir" kabi yuksak realistik san'at na'munalariga aylangan asarlarini kursatishimiz mumkin. Bugungi kunda teatrning tabarruk 90 yilga yaqin tarixi sahifalarini varaqlar ekansiz, Uzbekiston xalq artistlari R.Hamroyev, M.Azizova, S.Rahmonov, M.Mansurov, H.Ohunova, M.Ubaydullayev, K.Rahimov, U.Nuraliyev, T.Mamedova, Uzbekistonda xizmat korsatkan artistlar M.Dadaboyev, A.Toshboyev, O.Tojiboyeva, M.Isomiddinov, R.Hamraqulov, M.Qoraboyeva, T.Saydullayevlar san'atini- aktyorlik yutug'ini eslab o'tishi kifoya.

30-yillar - sahna san'ati sirlarini o'rganish borasida uziga hos maktab davri buldi. Rejissyorlar A.Turdiyev va R.Hamroyevlarning T.Ja'farova, M.Azizova, A.Toshboyev, S.Rahmonov, M.Dadaboyev kabi aktyorlar bilan K.Yashinning "Tormor" (1935), U.Ismoilovning "Rustam" (1935), F.Majidiyning "Otsiz" (1936), K.Yashinning "Nomus va mihabbat" (1938), natijalar berdi. Harakter yaratishda bir yoqlamalilik va sxematizmni yenggan holda aktyorlar qahramonlar ichki dunyosiga kirib borish san'atini egallay bordilar, hamda inson harakterini ochib berish borasida mahoratlari ortdi 1936 yilda hukumat qaroriga asosan Namangan Davlat drama teatriga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy nomi berildi. (1-rasm)

Ikkinchi jahon urushining dastlabgi yillaridayoq Namangan teatri qoshida otaliq kontsert brigadalari tuziladi va ular o'z faoliyatlarini xarbiy qismlar, frontga jo'nayotgan chaqiriluvchilar faol xizmat ko'rsatishdan boshladilar. Shuningdek teatr o'z sahnasida qahramonlik - vatanparvarlik ruhidagi spektakllarni qo'yish borasida ham talay ishlarni amalga oshirdi. S.Abdulla va Chustiyning "Qurbon Umarov" (1941), G.Mdivaning "Front bo'ylab yangrar buyruq" (1942),



I.Sultonning “Burgutning parvozi” (1944) kabi o’tkir, 1-rasm Alisher Navoiy teatri, 1970 –yil.

siyosiy, mushohadali, inson qudratini ulug’lovchi, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun kurashga chorlovchi spektakllar shular jumlasidandir.

1950-60 yillar jamoaning o’z repertuarini izlash borasidagi jadal sur’ati hamda aktyorlar sahna mahoratining o’sishi bilan harakterlanuvchi ijodiy ko’tarinkilik ruhi bilan diqqatga sazovor. Teatrga Uzbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan artist A.Xachaturov bosh rejissyor qilib tayinlanadi. Shu davrdan boshlab teatr ijodiy faoliyatida romantik jo’shqinlik, qahramonlik, komediyaviylik kabi dramatik asar janriga xos bo’lgan yangi qirralar paydo bo’la boshlaydi. Xuddi shu davrda teatr sahna san’ati va o’zbek dramaturgiyasining o’zaro aloqalari jarayoni yorqin namoyon bo’ldi. A.Qahhorning “Og’riq tishlar”(1955), O.Yoqubovning “Chin muhabbat”(1956), S.Qoriyevning “Dog’lar” (1956), Uyg’unning “Hurriyat” (1959) kabi spektakllari ijodiy jamoaning zamonaviy hayot muammolarini ravshanroq aks ettirishga intilayotganligi, yangi ifoda vositalari hamda yangicha sahnaviy talqin izlayotganligidan dalolat berardi. Shuning bilan birga teatr tarixiy va zamonaviy mavzularda asarlar yaratish borasida ham qator ishlarni amalga oshirdi. A.Bobojonning “Aziz va Sanam” (1955), A.Tirsunning “Unutilmas kunlar” (1957), K.Yashin va A.Umariyning “Hamsa” (1958) kabi spektakllari o’zining o’tkir ijtimoiy jarangi, o’ziga hos rejissyorlik talqini, qahramonlar obrazining nozik psixologik planda yaratilganligi bilan ajralib turadi.

A.Hidoyatov ishtirokida Hamsa nomli akademik teatr sahnasida tomoshabinlarni hayratga solgan “Otello”ning Namangan teatrdagi quyilishi (1954) ijodiy jamoaning zo’r jur’atidan dalolat berga edi. Bu bilan teatr uzining bejilov ilhomi va xohishini isbot eta oldi.

1963 yilda teatr musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi. Shu davrdan boshlab musiqali janr asarlari teatr repertuarida asosiy o’rinni egallaydi. Rejissyor K.Yo’lldashev sahnalashtirgan S.Abdullaning “Alpomish” (1965), S.Jamolning “Guli siyoh” (1966), S.Abdullaning “Tohir va Zuhra”(1966), F.Zafariy va T.To’laning “Halima”(1971), Sh.Hurshidning “Layli va Majnun”(1973) kabi asarlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, teatrning so’nggi yillar repertuarida V.Shekspirning “Hamlet”, B.Ravenskix va M.Goncharovning “Hayajonli qo’shiq”, M.Shatrovning “Revolyutsiya nomi bilan”, L.Leonovning “Hamla”, A.Tirsunning “Mashrab”, A.Shalamoyevning “Ibn Sino”, H.Sa’dullaning “Yusuf va Zulayho”, O.Abdullaning “O’n uchinchi rais”, A.Kolomeytsning “Qahri qattiq farishta” kabi spektakllar

mavjud edi. |Shu davrlarda sahna yuzini ko'rgan moldovan dramaturgi I.Drutsening "Kasa Mare" asari katta muvaffaqiyat qozondi va undagi bosh rollar ijrochilari T.Mamedova hamda R. Hamroqulovning mehnatlari o'zining munosib bahosini oldi.

1991- Yil. 1-sentabrda O'zbekiston mustaqil bo'ldi.

Shu boyis teatrlar uchun xam yangi milliy tuyg'u ruxi kirib keldi , shu jumladan Namangandagi A. Navoiy nomidagi musiqaliy teatrgaxam Mustaqilik davrida teatr jamosi ko'plab spektaklar namoish qildi shulardan Oltin qafas ichra dram rejisyor M.Asqarov rassom R. Shusainov 1992 yil , Adolat kuni drama rejisyor K Yoldashev rassom R. Shusainov1992yil , Sirli boshq drama rejisyor M. Asqarov rassom R.Xusanov 1992 yil,Mashrab drama M.Asqarov rassom E.Azizov 1992 yil, Al Kabir drama rejisyor M.Asqarov rassom E.Azizov 1992yil, Iloxompaymoning to'lmasin drama rejisyor K.Yo'ldashev rassom E.Azizov 1993 yil, Yor istab drama rejisyor J.Maxmud rassom E Azizov 1993 yil, Kashmir qishi musiqaliy drama rejisyor K.Yoldashev rassom E Azizov 1993 yil,Temurivning sarguzashtlari qo'g'rchoq spektakl rejisyor M.Mamajanov rassom M.Mamajanov 1994 yil, Qora yelkapishli kimsa drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajanov 1995 yil, Qochoq ekistranest drama rejisyor K.Yoldashev rassom Sh .Qoraboyev, Meshr quyoshi drama rijisyor K.Yoldashev rassom Sh.Qoraboyev 1995 yil , Munoqash drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajano,1995 yil, Baloyi nafs drama rejisyor M.Niyazov rassom M.Mamajanov 1995 yil,Shalpon qulqoq quyonchq qo'girchiq spektakel rejisyor M.Mamajanov rassom M.Mamajanov 1996 yil,Usmon Nosir qayerda drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajanov 1996 yil, Boy bilmasin men kafil qo'g'irchoq spektakil rejisyor M.Mamajanov rassom M.Mamajanov 1996 yil, Madaminbek drama rijisyor K.Yoldashev rassom M.Majanov 1997 yil,Qo'girchoqlqr qoyilganda qo'g'irchoq spektakil rejisyor M.Mamajanov rassom M.Mamajanov 1998 yil, Topqir tolmas drama rejisyor M.Niyazov rassom M.Mamajanov 1998 yil, So'ngi pushaymon drama rejisyor M.Niyazov rassom M.Mamajanov 1999 yil, Namangan allasi drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajanov 1999 yil,Qirol Lirning nabiralari tragediys rijisyor M.Niyazov rassom M.Mamajanov 2000yil, Bir qadam yol drama rejisyor M.Niyazov rassom M.Mamajanov 2000, yilAlpomishning o'q yoy musiqaliy drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajanov 2000 yil, Tobitdan tovush drama rejisyor K.Yoldashev rassom M.Mamajanov 2000 yil, Super qaynona musiqaliy komediya rejisyor M.Otajanov rassom M.Mamajanov 2000 yil, Advakatlik osonmas komediya rijisyor A.Xolboyev rassom M.Mamajanov2001 yil.

O'tkan yaqin yillarda teatr Vijdon amri, Alixonlik Gamlet, Quriyotkan daraxt, Taqdir eshigi, Xaj safari, Ayo lbo'lish osonmi?, Armon, Matmusa, Bog'bonqiz, Amir Temuryoxid adolat qilichi, O'tkan kunlar spektakliar saxnalashtirildi

2019-yilda Asror Samadovning Soxibquron Amir Temur yoxyd adolat qilichi rijisyor O'zbekiston san'at arbobi K. Yoldashev va rassom O'zbekistonda xizmat ko'rsatkan madaniyat xodimi Z. botirov tomonidan saxnalashtirilgan spiktakil Qirg'ziston respublikasida bo'lib o'tkan ART ORDO 7 xalqro teatrlar festivalida ishtirok etdi. Spektakil festivalning Eng yaxshi snegrafiya deb topildi

2020-Yil teatr Nurillo Abosxonning Maktab tragikomediyasini namoyish qild .Teatr jamosi kop yillar davomida ijod muxitida birgalikta saxnada ishlash jarayonida ustoz shogirt muxitini kashf qilishgan .

Teatr jamolari bugungi kunga kelib Respublika, viloyat va olis tumanlarda ommaviy tadbirlarda o'zlariga briktirilgan qaxramonlarini maxorat bilan gavdalanirishmoqda ,ayniqsa Namangan Gullar bayramida , Navro'z ,Mustaqilik tadbirlari bunga yaq'ol musol bo'lishi mumkin, buning natijasida axolining maroqli xordiq chiqarishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston respublikasa prezidentining 2020yil 26 may PF-6000-sonliy farmoni Madaniyat va san'at soxasini soxasining jamiyat xayotida o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni ,unda O'zbekiston respublikasining 2021-2023yillarga monjalangan Navoiy, Namanga, Sirdaryo va Toshkent viloyatllarida qo'girchoq teatrlarini tashkil etish to'grisida farmoni chiqdi , bu qaror farzandlarimiz uchun judayam ijobiy natijaga sababi xozirgi payta viloyatda bitagina teatr mavjud uxam bo'lsa markazda joylashgan . Jamiyatda xarbir inson o'zining milliy qadiryatlarini, madaniyatini, etnik va estetikasini aglash uchun insonlar qancha ko'p teatrlarga tushsa sipektakilarni ko'rsa vataniga ,ota-onasini va o'zgalarni xurmat qiladi , shuning uchun xam xar bir xududa bolalar uchun qo'g'irchoq teatr bolishi kerak. Teatr turlari orasida qo'ig'irchoq teatri o'z spesifik xususiyatlariga ko'ra aloxida ajiralib turadi. Qogirchiq teatri-ajoyib va g'royib,ta'sirli san'at. Uning jozibadorligi, tamoshabinligi va qandaydir sodda go'zaligi <<mo'jizaliy>>tabiyatga ega bo'lishidan dir Xozirgi payt teatr jamolarini cheka joylarga ijodiy safarlar uyishtirilsa spektakilarni namoish qilish orqali odamlarda san'atga bo'lgan ishtiyoq o'sadi shunung uchun xam jamiyatga teatr kerak. Xozirgi payda viloyatdagi A Navoiy nomidagi musiqaliy drama teatrida muamolar borligi ayniqsa teatrning rassomlar uchun ajiratiladigan maxsus dekoratsiyalariga rikvizit maxsulotlar ishlab chiqarish ustaxonasi mavjud emasligi va axoliga beriladigan yangi spektakilar to'liq va mukamal yetib bormaslika,shunchaki

rasmiyachilika olib keladi oqibatda axoli teatrlarga bormaslik va odamlarning manaviy dunyo qarashi o'zgaradi

Mening ilmiy ishmining hozirgi Farg'ona vodiysi kesimida teatrlarnini o'rganish, ulardagi dolzarb muamolarga ilmiy tamoilar asosida qarash, axolini san'atga qiziqtirish uning uchun teatrlarda qo'yilayotkan spektakillarni siyomka qilib olish jarayonlarni yo'lga qoyishga xududuy telividiniya orqaliy axoliga doimiy yetkazib borish bu jarayon asosan poytaxt teatrlarida mavjud ,men Namangan viloyati A.Navoiy nomidagi teatrida spektakilarn siyomkalash jarayoni qolash kerakligi va aksaryat dekoratsiyalar baner „shiroko formatda „ chiqarilyapgan bo'lsa rassom qo'l mexnatida qilingan saxna bezaklari asar muxitini yaratishida profesional yondashadi . Ko'chma teatrlarni tashkilashtirish kerak inson jonli tomoshalar orqali saxna bezagi undagi aktiyorlarni musiqaliy muxitni asarni sujetiga ozi xam saxnada ishtirok etiyotkanda xis qiladi, undagi rejjisyor rassom va aktiyorlar ijodini ko'z oldida korish jaroyinida o'zini yangi tug'lganday xis qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Rahmatullayeva “Teatr maktabi” T. 2005
2. S.Tursunboyev “Teatr tarixi” T. 2017
3. Muxsin Qodirov. “Зрелищные искусства Узбекистан” T. 2010